

## V. XIZMATLAR

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan xizmatlar sohasining ahamiyati juda ulkan va dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tobora murakkablashib borayotganligi, bozorni kunlik va individual talablarga mos iste’mol mollari bilan to‘ldirish, innovatsion rivojlanishning jadal o‘sishi jamiyat hayotining yangilanishiga olib keladi. Bu axborot, moliya, transport, sug‘urta va boshqa turdagи xizmatlarsiz amalga oshmaydi.

Zamonaviy jamiyat hayotida xizmatlar sohasi juda keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Bugungi kunda u yoki bu turdagи xizmatlar ko‘rsatmaydigan yoki hech bo‘lmaganda unga duch kelmagan korxonalar deyarli yo‘q.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hajmi 31 934,8 mlrd. so‘mni tashkil qildi, shu jumladan, qishloq joylarida 8 436,6 mlrd. so‘m yoki umumiyo ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining 26,4 %ini tashkil qildi. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 110,8 %ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan  
xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari  
(2023- yil yanvar-dekabr oylarida)**

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2022- yilga nisbatan % hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan % hisobida</i>
<b>Jami xizmatlar:</b>	<b>31 934,8</b>	<b>110,8</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan, xizmat turlari bo‘yicha:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1 063,2	123,5	3,3
Moliyaviy xizmatlar	4 633,8	120,0	14,5
Transport xizmatlari	7 268,7	106,8	22,8
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>			
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	1 509,3	109,4	4,7
Savdo xizmatlari	10 454,4	109,3	32,7


	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2022-yilga nisbatan % hisobida</i>	<i>yakunga nisbatan % hisobida</i>
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	995,4	105,4	3,1
Ta’lim sohasidagi xizmatlar	765,3	111,3	2,4
Sog‘lijni saqlash sohasidagi xizmatlar	846,6	116,0	2,7
Ijara xizmatlari	904,3	104,7	2,8
Kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta’mirlash xizmatlari	695,8	106,3	2,2
Shaxsiy xizmatlar	941,4	107,4	3,0
Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	635,8	100,6	2,0
Boshqa xizmatlar	1 220,8	125,1	3,8

Yuqori o’sish boshqa xizmatlar (125,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (123,5 %), moliyaviy xizmatlar (120,0 %), sog‘lijni saqlash sohasidagi xizmatlar (116,0 %) hamda ta’lim sohasidagi xizmatlar (111,3 %)da qayd etildi.

Shuningdek, uncha yuqori bo‘lmagan ko‘rsatkichlar, ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar (105,4 %), ijara xizmatlari (104,7 %) hamda me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar (100,6 %)da qayd etildi.

Xizmatlar sohasiga taalluqli bo‘lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo‘yicha o’tgan yilning shu davriga nisbatan o’sish sur’atlarining o‘sishi kuzatilmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan  
bozor xizmatlarining tarkibi  
(2023- yil yanvar-dekabr oylarida)**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2023- yil yanvar-dekabr oylarida ularning ulushi 32,7 %ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar transport xizmatlari (22,8 %) hamda moliyaviy xizmatlar (14,5 %)da qayd etildi. Yashash va ovqatlanish xizmatlarda uncha katta bo'limgan o'sish kuzatilib ularning ulushi (4,7 %)ni tashkil etdi.

Shuningdek, nisbatan yuqori bo'limgan ulushlar kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (2,2 %) hamda me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar (2,0 %) hissasiga to'g'ri keldi.

**Savdo xizmatlari tarkibi, %da  
(2023- yil yanvar-dekabr oylarida)**




2023- yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo xizmatlari ulushi viloyat bo‘yicha umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to‘rtadan uch qismini, aniqrog‘i 70,4 %ini tashkil etdi (2022- yilning mos davrida chakana savdo xizmatlari ulushi 69,5 %ga to‘g‘ri kelgan).

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 20,8 %ni tashkil etdi (2022- yilning mos davrida ulgurji savdo xizmatlari ulushi 21,1 %ga to‘g‘ri kelgan).

Avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosiga, avtomobil va mototsikllarni ta’mirlash xizmatlarini qo’shgan holda umumiyligi savdo xizmatlarining ulushi 8,8 %ni tashkil qildi (2022- yilning mos davrida avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosiga, avtomobil va mototsikllarni ta’mirlash xizmatlarini qo’shgan holda umumiyligi savdo xizmatlarining ulushi 9,4 %ga to‘g‘ri kelgan).


**Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining  
o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan, %da**  
(2023- yil yanvar-dekabr oylarida)



Ushbu davr mobaynida nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Yuqori Chirchiq (112,6 %), Oqqo'rg'on (112,5 %) tumanlarida hamda Nurafshon (111,5 %), Bekobod (111,4 %), Olmaliq (111,3 %) shaharlarda qayd etildi.

Aksincha, ushbu davr mobaynida eng past o'sish sur'atlari Bo'ka (110,3 %), Zangiota (110,2 %), Quyi Chirchiq (110,1 %), Qibray (110,0 %) va Piskent (110,0 %) tumanlarida qayd etildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor  
xizmatlarining o'sish sur'atlari taqqoslanishi, %da  
(2023-yil yanvar-dekabr oylarida)**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yuqori o'sish sur'atlari boshqa xizmatlar (125,1 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (123,5 %) va moliyaviy xizmatlar (120,0 %)da qayd etildi. Aksincha, eng past ko'rsatkichlar ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lган xizmatlar (105,4 %), ijara xizmatlari (104,7 %) hamda me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlari va tahlil sohasidagi xizmatlar (100,6 %)da qayd etildi.


**2023- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha ko‘rsatilgan  
xizmatlar hajmi**

	<i>Jami</i>			<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mldr. so‘m</i>	<i>2022- yilga nisbatan %da</i>	<i>Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, %da</i>	<i>ming so‘m</i>	<i>2022- yilga nisbatan %da</i>
<b>Viloyat bo‘yicha</b>	<b>31 934,8</b>	<b>110,8</b>	<b>100,0</b>	<b>10 565,3</b>	<b>108,8</b>
<i>shaharlar:</i>					
Nurafshon	1 097,7	111,5	3,4	19 886,7	107,9
Olmaliq	2 229,7	111,3	7,0	15 537,8	108,8
Angren	2 153,7	110,6	6,7	11 932,1	108,2
Bekobod	1 495,4	111,4	4,7	14 518,5	109,2
Ohangaron	640,1	111,3	2,0	15 611,7	109,6
Chirchiq	2 760,1	111,0	8,6	16 188,6	108,3
Yangiyo‘l	1 391,1	110,5	4,4	16 619,8	106,8
<i>tumanlar:</i>					
Oqqo‘rg‘on	868,0	112,5	2,7	7 805,7	110,6
Ohangaron	474,0	111,2	1,5	4 301,3	109,1
Bekobod	938,8	110,9	2,9	5 710,3	109,2
Bo‘stonliq	2 047,7	110,8	6,4	11 634,5	109,5
Bo‘ka	899,0	110,3	2,8	6 734,1	108,5
Quyi Chirchiq	720,0	110,1	2,3	6 255,8	108,2
Zangiota	3 032,7	110,2	9,5	17 923,9	109,0
Yuqori Chirchiq	1 319,4	112,6	4,1	9 540,2	110,7
Qibray	2 625,4	110,0	8,2	15 071,3	109,0
Parkent	1 194,1	110,7	3,7	6 757,7	108,8
Piskent	510,1	110,0	1,6	4 981,8	108,5
O‘rta Chirchiq	1 064,8	110,9	3,3	7 834,8	109,3
Chinoz	1 066,1	110,4	3,3	7 398,4	108,0
Yangiyo‘l	1 526,0	110,5	4,9	7 691,6	108,3
Toshkent	1 880,9	110,9	6,0	9 615,4	107,9

2023- yil yanvar-dekabr oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush Zangiota tumanida qayd etildi – (9,5 %) (2022- yilning mos davrida– 9,5 %). Aksincha, eng past ko‘rsatkich Ohangaron tumanida – 1,5 % (2022- yilning mos davrida – 1,5 %) qayd etildi.

2023- yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 10 565,3 ming so‘mga teng bo‘ldi. O‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 108,8 %ni tashkil etdi.


**2023- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar o‘sish sur’ati, %da**



2023- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan eng yuqori ko‘rsatkichlar Yuqori Chirchiq (110,7 %), Oqqo‘rg‘on (110,6 %), Bo‘stonliq (109,5 %), O‘rta Chirchiq (109,3 %) tumanlarida va Ohangaron shahrida (109,6 %) qayd etildi.

Aksincha, eng past ko‘rsatkichlar Nurafshon (107,9 %), Yangiyo‘l (106,8 %) shaharlarida hamda Toshkent (107,9 %) tumanida qayd etildi.

**2023- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi, ming so‘m**




Joriy yilda viloyatda aholi jon boshiga ko‘rsatilgan eng yuqori xizmatlar hajmi Nurafshon shahrida – 19 886,7 ming so‘mni (o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 107,9 %), Zangiota tumanida – 17 923,9 ming so‘mni (109,0 %) va Yangиyo‘l shahrida – 16 619,8 ming so‘mni (106,8 %) tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan eng past xizmatlar hajmi Bekobod tumanida – 5 710,3 ming so‘mni (o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 109,2 %), Piskent tumanida – 4 981,8 ming so‘mni (o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 108,5 %) va Ohangaron tumanida – 4 301,3 ming so‘mni (o‘sish sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 109,1 %) tashkil etdi.

**Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik  
faoliyatining ulushi, %da**

*(2023- yil yanvar-dekabr oylarida)*



2023- yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmiga nisbatan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ulushi 69,4 %ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining ulushi tahlil qilinganda, eng yuqori ulush Bo'ka (82,9 %), Parkent (82,3 %) tumanlariga hamda Yangiyo'l shahriga (85,4 %) to'g'ri keldi.

Aksincha, eng past ulush Bo'stonliq (58,2 %), Chinoz (57,7 %) tumanlarida hamda Nurafshon shahrida (41,5 %) kuzatildi.